

## USMON AZIM – ROST TUYG‘ULAR KUYCHISI

*Sayliyeva Zarina Raxmiddinovna,*

*Buxoro davlat universiteti,*

*O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida o‘qituvchisi, (PhD)*

*Homidjonova Zuhaxon Bahromjonovna,*

*Buxoro davlat universiteti*

*Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada shoir Usmon Azim she‘rlarining mavzular olamining rang-barangligi haqida so‘z boradi. Shoir she‘rlaridagi sevgi, muhabbat, vafodir, do‘stlik, sadoqat, Vatan ishq she‘rlarda o‘z aksini topgan.

**Kalit so‘zlar:** Alloh, Vatan, mehr-oqibat, sevgi, muhabbat, Odam Ato, ko‘ngil.

Usmon Azim – shoir, dramaturg, kinodramaturg va nosir. U yaratgan o‘nlab to‘plamlarga kirgan she‘rlar, dostonlar yorqin tuyg‘ularga, ifodalarga boyligi, jo‘shqin va jozibadorligi, shiddatkor va da‘vatkorligi, goh g‘amgin, goh beg‘ubor, erkalovchi ohanglari bilan kitobxon qalbidan joy oladi. Shu bilan hayotiyliigi, o‘tkir drammatizmi va fojiiyaviyliigi bilan o‘quvchini hayajonga soladi, uning tuyg‘ularini junbushga keltiradi.

Shoirning she‘rlariga nazar solars ekanmiz, uning mavzular olami naqadar kengligiga amin bo‘lamiz. She‘rlarida, asosan, Vatan ishq, xalq muammolari, ayriliq munosabatlari, do‘stlik, mehr-oqibat, vafodir, sadoqat nafasi ufurib turadi. Shoir bir she‘rida o‘zi haqida aytganidek:

O‘ynoq-o‘ynoq, og‘ir-og‘ir o‘tmoqda umrim,

Goh ko‘z yumib, goh ufqqa botmoqda umrim.

Bor jonini sadqa aylab she‘rga, qo‘shiqqa,

Siz yo‘qotgan sururlarni topmoqda umrim.

“Oyning o‘n beshi yorug‘, o‘n beshi qorong‘u”, – deganlaridek shoirning hayoti ham bir tekisda davom etmagan. Uning hayoti gohida quvonch-u shodliklarga boy, gohida esa qayg‘u-yu alamlarga to‘la o‘tgan. Usmon Azimni ham boshqa shoirlarda bo‘lgani kabi qiyinchiliklar chetlab o‘tmagan. Matonatli shoir bu qiyinchiliklarni sabr-qanoat bilan yengib o‘tadi. Hayoti davomida o‘zining she‘rlari, qo‘shiqlariga tayanib, ulardan ilhomlanib yashashda davom etadi.

Shunday shoirlar borki, u elining yuzini yorug‘, nomini ulug‘ qiladi. Ularning ijodini ko‘tarib dunyoga bo‘ylagan xalqning bo‘yi osmon bo‘ladi. Boisi, ular faqat qalbidan borini yozadi, boshqasini emas. Qalbning esa millati bo‘lmaydi. O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azim ham ana shunday shoirlardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Usmon Azim ijodi she'riyat olamida o'ziga xosligi va fikrlar ko'lamining zalvorligi bilan, u hayot tomirlaridagi ichki harakatni, davr yuragidagi murakkab harakatni chuqur his eta oladigan, o'zigina his qilib qolmasdan o'quvchiga ham bu tuyg'uni yuqtira oladigan shoir hisoblanadi.

“Shoirlar dunyoni o'zgacha ko'radi, ular boshqalarga o'xshamaydi”, –deydilar. Darhaqiqat, shunday. Sababi ularda boshqalar dardini his qiluvchi qalb, hayot ma'nosi haqida mulohaza qiluvchi idrok mavjud. Usmon Azim she'rlarini mutolaa qilish jarayonida so'zlarimizni isbotini ko'rishimiz mumkin. Quyida shoir she'rlarining ayrimlaridan namunalar ko'rib chiqamiz.

“So'zlaringda –hasrat, ko'zlaringda – nam” nomli she'r:

So'zlaringda-hasrat, ko'zlaringda- nam  
Suyganim, g'ussanga to'ldi-ku olam...  
Ko'ngil salqinida sevgi – bir shabnam,  
Quyosh kulganicha yashab o'tadir.  
Tumanlar ichinda bog'lar hayrondir,  
Ayriliq bulbuli jonda sayrondir,  
Ikkimiz tuzgan bu yurak vayrondir-  
Ishq seli xarobat tashlab o'tadir.

Ushbu she'rni o'qib chiqar ekanmiz, uning ishqiy mavzuda yozilganligini guvohi bo'lamiz. Muhabbat dunyodagi eng shirin va sirli tuyg'u. Biroq u qayerdan keladi? Albatta, u bizga Alloh tomonidan berilgan bebaho in'omdir. Sevgi – g'oyatda go'zal gul, unga yaqinlashish va nobud qilmasdan uzib olish uchun jasorat talab qilinadi. Shoir Usmon Azim ham “Ko'ngil salqinida sevgi – bir shabnam” deb bejizga ta'kidlamagan. Shoir sevgini shabnamga mengzaydi. Xuddi shabnam donalari orqali shoirning qalbiga yorning sevgisi yetib borgan.

Usmon Azimning navbatdagi she'rini tahlil qilar ekanmiz, uning naqadar mahorat bilan yozilganini ko'ramiz. Keling, birgalikda navbatdagi “Rol” she'rini ko'rib chiqamiz:

Rejissor buyurdi: endi men -shayton...  
Yo'q, yo'q farishtaman, hali farishta.  
Olloh pokligimga qilgan yo'q gumon,  
Xizmatim- beminnat, ishim-sarishta.  
Qodir dargohida qobil xizmatkor,  
Yer-u ko'k orasida halol yugurdak,  
Muloyim, ko'ngilchan, ajbir, shiddatkor-  
Burchimni o'tadim yugur- yugurlab.

Darhaqiqat, bu hayot bizga sinov uchun berilgan. Yanayam aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, Alloh Odam Atoning qilgan xatosi uchun bu dunyoni unga jazo sifatida bergan. Hayot – o'tkinchi. Bu dunyoga, uning bebaqo narsalariga ko'gil

qo‘ygan inson juda katta xato qiladi. Shoir Usmon Azim ham o‘zining she‘rida shu narsalarga ishora qilgan. Hayot– bu kino. Biz esa aktyor va aktrisalarmiz. Qaysi rolni ijro etishimizni esa hayotni o‘zi ko‘rsatib beradi. Ba‘zida salbiy, ba‘zida esa ijobiy rolni ijro etamiz. Bizga berilgan umrni qanday o‘tkazish o‘zimizga bog‘liq. Ayrim inson hayoti davomida o‘yin-kulgu, aysh-u ishratga berilib yashaydi. Ayrimlar esa hayotini ilm-ma‘rifatga bag‘ishlaydi. Mazmunli umrguzaronlik qiladi. “Yemoqni qusmog‘i bor” deganlaridek, hayotimizni qanday o‘tkazishimizdan qat‘iy nazar hammamiz Allohning oldida qilgan ishlarimizga javob beramiz. Bu dunyoda bizdan yaxshi ammallarimiz, odamlarga qilgan yaxshiliklarimiz qoladi. Shunday ekan hayotimizni mazmunli va yaxshi amallar bilan o‘tkazish joizdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi o‘zbek she‘riyati taraqqiyotiga Usmon Azimning munosib hissa qo‘shgani shubhasiz. Shoir o‘zining g‘oyat rang-barang janrlardagi asarlari bilan adabiyotimizning badiiy imkoniyatlarini kengaytirdi, uni yangi tafakkur mevalari bilan boyitgan bo‘lsa, Usmon Azim she‘riyati o‘zbek xalqining milliy madaniyati, ruhiy olami, orzu-istaklari bilan uzviy bog‘langan. Chunki uning ijodi o‘zbek adabiyotidagi Cho‘lpon yo Mirtemir she‘riyatidek chinakam milliy va noyob hodisa. O‘zbek xalqining ma‘naviy dunyosini shakllantirishda go‘yat kuchli va samarali ta‘sir ko‘rsatayotgan ijodkor-Usmon Azim desak adashmagan bo‘lamiz. Shuning uchun Usmon Azim va unga avloddosh shoirlar ijodini yanada chuqur o‘rganish hozirgi davr o‘zbek adabiyotshunosligining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Usmon Azim. Saylanma.-T.: Sharq nashriyoti, 1995.
2. Usmon Azim. Dars kitobidan.-T.: Sharq nashriyoti, 1986.
3. Usmon Azim. Surat parchalari kitobidan.-T.: Sharq nashriyoti, 1986.
4. Usmon Azim. Ikkinchi aprel kitobidan.-T.: Sharq nashriyoti, 1987.
5. Usmon Azim. Baxshiyona kitobidan.-T.: Sharq nashriyoti, 1989.
6. Usmon Azim. Uyg‘onish azobi kitobidan.-T.: Sharq nashriyoti, 1991.
7. Usmon Azim. G‘ussa kitobidan.-T.: Sharq nashriyoti, 1994.
8. Usmon Azim. Kollaj.-T.: Sharq nashriyoti, 2018.
9. Sayliyeva Z. R., Murodova M. R. Q. LITERACY OF PRAISE IN THE VERSES OF ALISHER NAVOI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 372-380.
10. Raxmiddinova S. Z., Qizi M. M. R. Prophet of the peace and blessings of allah be upon him (o prophet of the prophet hood...) //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 5. – C. 31-36.
11. Raxmiddinova S. Z. et al. USTOZ-IBROHIM HAQQUL IJODIGA CHIZGILAR //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 21. – №. 2. – C. 113-117.

12. Rakhmiddinova S. Z. EY, SAFHAYI RUXSORING AZAL XATIDIN INSHO //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – С. 112.
13. Rakhmiddinova S. Z., Manzura K. MUHAMMAD RAHIMKHAN FERUZ AND HIS DESCENDANTS //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 142-146.
14. Rakhmiddinova S. Z. CHU JILVA AYLADI UL HUSN ISTABON OSHIQ.. //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – С. 132.  
Бекова Н. Ж., Сайлиева З. Р. " Девони Фони": издания и исследования //Филология и лингвистика в современном обществе. – 2014. – С. 20-22.
15. Бекова Н. Ж., Жалилова Л. Ж., Сайлиева З. Р. On a separate literary sources of the poetry collection " Sittai Zaruriya" by Alisher Navoi //Современная филология. – 2014. – С. 45-47.

